

## Oriental Journal of Education



### THE UNIQUENESS AND DEVELOPMENT TRENDS OF THE "CENTRAL ASIA+JAPAN" FORMAT

**Barno S. Suyunova**

*PhD student*

*Tashkent State Oriental Studies University*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [barno.suyunova.95@mail.ru](mailto:barno.suyunova.95@mail.ru)*

#### ABOUT ARTICLE

**Key words:** "Central Asia + Japan", multilateral cooperation, openness, stability, Tokyo intellectual dialogue.

**Received:** 20.04.24

**Accepted:** 22.04.24

**Published:** 24.04.24

**Abstract:** This article is devoted to the analysis of the development prospects of the "Central Asia + Japan" Dialogue, which is considered the first of the most popular "Central Asia + 1" formats for establishing relations with the countries of Central Asia. Appropriate conclusions were drawn up using the speeches of state leaders and scientific works of political scientists. The "Central Asia+Japan" format can be considered as a mechanism for expanding Japan's cooperation with the countries of the region, rather than a substitute for bilateral cooperation.

### “MARKAZIY OSIYO+YAPONIYA” FORMATINING O‘ZIGA XOSLIGI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

**Barno S. Suyunova**

*Tayanch doktorant*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O‘zbekiston*

*E-mail: [barno.suyunova.95@mail.ru](mailto:barno.suyunova.95@mail.ru)*

#### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** “Markaziy Osiyo+Yaponiya”, ko‘p tomonlama ochiqlik, barqarorlik, Tokio mulqoti

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarga kirishishning hozirgi kundagi eng ommalashib borayotgan “Markaziy Osiyo+1” formatlarining dastlabkisi hisoblanuvchi “Markaziy Osiyo+Yaponiya” Dialogining vujudga kelishi va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Bunda davlat rahbarlari nutqlari, siyosatshunos olimlarning ilmiy ishlaridan foydalangan holda tegishli xulosalar ishlab

chiqildi. “Markaziy Osiyo+Yaponiya” formatini ikki tomonlama hamkorlik o‘rnini bosuvchi vosita emas, balki Yaponiyaning mintaqa mamlakatlari bilan hamkorligini kengaytirish mexanizmi sifatida qabul qilish mumkin.

## УНИКАЛЬНОСТЬ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ФОРМАТА «ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ+ЯПОНИЯ»

**Барно С. Суюнова**

*PhD студент*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [barno.suyunova.95@mail.ru](mailto:barno.suyunova.95@mail.ru)*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** «Центральная Азия + Япония», многостороннее сотрудничество, открытость, стабильность, Токийский интеллектуальный диалог.

**Аннотация:** Данная статья посвящена анализу перспектив развития Диалога «Центральная Азия + Япония», который считается первым из самых популярных форматов «Центральная Азия + 1» для установления отношений со странами Центральной Азии. Соответствующие выводы были сделаны с использованием выступлений руководителей государств и научных трудов политологов. Формат «Центральная Азия+Япония» можно рассматривать как механизм расширения сотрудничества Японии со странами региона, а не как замену двустороннего сотрудничества.

### KIRISH

“Markaziy Osiyo+Yaponiya” formati Yaponiya va Markaziy Osiyo respublikalarining mintaqaviy va xalqaro masalalar bo‘yicha hamkorligining o‘ziga xos namunasi sanaladi. Muloqot doirasidagi hamkorlik natijasida Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va demokratiyani mustahkamlash, iqtisodiyot asoslarini mustahkamlash, islohotlar va ijtimoiy rivojlanishga ko‘maklashish, mintaqa davlatlari va jahon hamjamiyatining aloqalarini rivojlantirish, Yaponiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga erishish ko‘zda tutilgan. Mazkur format tarkibiga kiruvchi Tashqi ishlar vazirlari uchrashuvi, Oliy mansabdor shaxslar yig‘ilishi va Tokio intellektual muloqoti Yaponiya va Markaziy Osiyoga keng ko‘lamli masalalarni muhokama qilish imkonini beruvchi muhim xususiyatlarga ega. Shu nuqtai nazardan, muloqot ishtirokchilari muloqotning amaliy jihatlariga katta e‘tibor qaratish orqali keyingi o‘zgarishlarga intilishlarini namoyish etadilar.

## ASOSIY QISM

O‘zaro munosabatlar yangi bosqichining rasmiy boshlanishi Yaponiya hukumati tomonidan ilgari surilgan “Markaziy Osiyo+Yaponiya” muloqotini o‘tkazish tashabbusi bilan bog‘liq. Markaziy Osiyo davlatlari bu taklifga ijobiy munosabat bildirdi va bunday formatdagi birinchi uchrashuv 2004-yilning avgustida Ostona shahrida bo‘lib o‘tdi. Natijada qo‘shma bayonot qabul qilinib, unda xilma-xillikka hurmat, raqobat va o‘zaro hamkorlik, ochiq hamkorlik kabi muloqot tamoyillari e‘lon qilindi.

Tokioning Markaziy Osiyo respublikalariga nisbatan ko‘p tomonlama yondashuvini bugungi kunda ko‘plab davlatlar tomonidan qo‘llanilayotgan “Markaziy Osiyo+1” formatlari orasida birinchi marta ilgari surilganligi keyingi muloqot platformalari uchun prototip sifatida rol o‘ynaydi deb aytish mumkin. Tsukuba universiteti tadqiqotchisi A.Dissyukov ham shunga urg‘u berib, muloqot “bilim” vazifasini bajarib, bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlari o‘z diplomatik faoliyatida undan foydalanib kelayotganliklari haqida fikr bildiradi [1, p.2]. Shuningdek, mazkur formatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, Yaponiya tomonidan taklif etilayotgan mexanizm ikki tomonlama hamkorlik o‘rnini bosuvchi vosita sifatida ko‘rilmaydi, balki Yaponiyaning mintaqa mamlakatlari bilan hamkorligi imkoniyatlarini to‘ldiradi va kengaytiradi.

Bunday muloqotni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar uning paydo bo‘lishidan ancha oldin paydo bo‘lgan. Yaponiya bir necha bor Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida turli muammolar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan yirik xalqaro konferensiyalarni o‘tkazish tashabbusi bilan chiqqan. Xususan, 1992-yil oktabr oyida Yaponiya tashabbusi bilan 70 ta davlat va 20 ta xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar vakillarini jamlagan Yangi Mustaqil Davlatlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha Tokio konferensiyasini tashkil qildi. Yaponiya Bosh vaziri Kiichi Miyazava konferensiya ochilishida so‘zlagan nutqida ushbu konferensiyadan keyin Yaponiya texnik va gumanitar yordam ko‘rsatishni boshlashi va sobiq Sovet mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga kirishishi haqida fikr bildirgan[2]. Keyingi xalqaro konferensiya 24 ta davlat va 12 ta xalqaro tashkilot vakillari ishtirokida 1999-yil sentabrda Semipalatinsk bo‘yicha o‘tkazildi. Mazkur Tokio xalqaro konferensiyasida asosiy maqsad Qozog‘istonga sobiq Semipalatinsk yadroviy poligonida yadroviy qurollar sinovlari o‘tkazilishi natijasida yuzaga keluvchi oqibatlarini bartaraf etishda yordam berishga qaratilgan edi. Yana bir xalqaro ahamiyatga molik konferensiya 2002-yil yanvar oyida Tokioda bo‘lib o‘tdi. Unda Afg‘oniston muammosi ko‘rib chiqilib, Afg‘onistonni qayta tiklashga yordam berish uchun xalqaro hamkorlik qilish g‘oyasi ilgari surilgan.

Yaponiya bir qator xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarga a‘zoli va kuzatuvchi davlat sifatidagi ishtiroki orqali dunyoning turli qismlaridagi o‘ziga xos voqealarni kuzatish va tahlil qilishga imkon beradi. Bu esa Tokio o‘z sheriklariga nisbatan moslashuvchan siyosat olib borishiga sharoit yaratadi. “Markaziy Osiyo+Yaponiya” formatining vujudga kelishida ham Yaponiya o‘z tajribasiga ega edi. Bunga o‘xshash muloqot shakli ilk marta 1981-yilda Yaponiya va ASEAN o‘rtasida turli iqtisodiy

masalalarni birgalikda hal qilish maqsadida Tokioda tashkil qilingan savdo, investitsiyalar va turizmni targ'ib qilish bilan shug'ullanuvchi "ASEAN-Yaponiya" markazi edi. Bundan tashqari, 1997-yil dekabr oyida yaratilgan "ASEAN+3" hamkorligi ham Yaponiya hukumati a'zolarida hamkorlikning keng qamrovli va qulay shakli sifatida qabul qilingan[3].

Sobiq Tashqi ishlar vaziri Y.Kavaguchining 2004-yil O'zbekistonga tashrifi paytida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida qilgan nutqida Markaziy Osiyo mintaqasi bilan hamkorlikda yangicha formatdan foydalanish haqida fikr bildirdi. U Markaziy Osiyo mintaqasining global xavfsizlik uchun muhimligini va Yaponiyaning Markaziy Osiyoga munosabatida "g'arazli maqsadlar" yo'qligini ta'kidlagan holda, Yevroosiyo diplomatiyasi qabul qilingandan beri Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro hamkorlikning tabiati va ko'lami hamda madaniy tushunish darajasida sezilarli o'zgarishlarni ko'rsata oldi. U Yaponiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan ikki tomonlama munosabatlarni yanada yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlarni davom ettirish va Markaziy Osiyo davlatlari bilan muloqot qilish kabi yangilangan siyosatini e'lon qildi.

Xususan, suv muammolari va radioaktivlik muammolari ham yapon xalqining qalbiga yaqin bo'lgan muammolar bo'lib, Yaponiyaning Biva ko'li hududidagi aholi Orol dengizining ekologik fojiasidan ko'proq xabardor bo'lib, tashvishga tushganligi hamda Semipalatinsk ham yapon xalqiga ma'lum ekanligi va aholining mazkur hududlarda xayriya tadbirlarini o'tkazishda xayrixohliklari alohida ta'kidladi. Kavaguchi ijtimoiy va iqtisodiy hamkorlik sohasida, jumladan, inson resurslarini rivojlantirish, energetika, atrof-muhit va boshqa sohalarda hamkorlikning muhim istiqbollari haqida fikr bildirdi.

Shu nuqtai nazardan, "xilma-xillikni hurmat qilish, raqobat va muvofiqlashtirish hamda ochiq hamkorlik" kabi uch tamoyilga asoslangan "hamkorlik varianti" sifatida "Markaziy Osiyo+Yaponiya" muloqotini yaratishni taklif qildi[5]. Y.Kavaguchi nutqida yangi hamkorlik formatining ahamiyati va istiqbollari atroflicha bayon qilib berilishi Markaziy Osiyo vakillari tomonidan ijobiy qabul qilingan.

2004-yil 28-avgust kuni Qozog'istonning Ostona shahrida Turkmanistondan tashqari barcha Markaziy Osiyo davlatlari tashqi ishlar vazirlari Yaponiya Tashqi ishlar vaziri bilan uchrashdilar va "Markaziy Osiyo+Yaponiya" nomli yangi forumni ochishga kelishib oldilar. Tashrifning MOHT yig'ilishi bo'lib o'tgan kunda qilinganligi Yaponiyaning Markaziy Osiyoda mavjudligi nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy ham bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi[4. p.23-24]. 2004-yil dekabr oyida Y.Kavaguchi Yaponiya Bosh vazirining maxsus maslahatchisi sifatida Bolgariya poytaxti Sofiya shahrida bo'lib o'tgan YXHT Vazirlar Kengashining o'n ikkinchi yig'ilishidagi nutqida ham "Markaziy Osiyo va Yaponiya" muloqotini taqdim etdi va yevropalik hamkasblarini xalqaro terrorizm, giyohvand moddalar savdosi, suv muammolari, ekologik muammolar, energiya, transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish kabi sohalarda Markaziy Osiyo sa'y-harakatlariga birgalikda

yordam berishga chaqirdi[6]. Shuningdek, Sofiya shahrida 7-dekabr kuni “Markaziy Osiyo va Yaponiya” muloqoti doirasida yana bir yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog‘iston Tashqi ishlar vaziri K.Toqaeov, Tojikiston Tashqi ishlar vaziri T.Nazarov, O‘zbekiston Tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari B.Norov, Qirg‘iziston Tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari E. Mamkulov ishtirok etdilar. Y.Kavaguchi Turkmaniston Tashqi ishlar vaziri R. Meredov bilan ham alohida uchrashuv o‘tkazgan. Ushbu uchrashuvda Y.Kavaguchi xonim va Markaziy Osiyo davlatlari vakillari “Markaziy Osiyo+Yaponiya” Muloqotining muhimligini va bu muloqotni davom ettirish niyatlarini yana bir bor tasdiqladilar. Uchrashuvda mintaqaviy vaziyat, jumladan, Ukrainadagi prezidentlik saylovlari va Afg‘onistondagi o‘zgarishlar yuzasidan fikr almashildi[7].

Navbatdagi “Markaziy Osiyo+Yaponiya” formati doirasida Tashqi ishlar vazirlarining ikkinchi qo‘shma majlisi 2006-yil iyun oyida Tokioda bo‘lib o‘tdi. Qolaversa, Afg‘oniston tashqi ishlar vaziri ilk bor uchrashuvda kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi ham diqqatga sazovordir. Yaponiyaning bu faol harakati ba’zi xorijiy ommaviy axborot vositalarining e’tiborini tortdi, chunki u ShHT yillik sammitidan bir hafta oldin bo‘lib o‘tgan edi. Uchrashuv yakunlari bo‘yicha keng ko‘lamli Harakatlar rejasining qabul qilinishi esa muloqot faoliyatining asosiy yo‘nalishini huquqiy jihatdan belgilab berdi. Aniq belgilangan muddat yo‘qligiga qaramay, Harakatlar rejasi hozirga qadar Muloqotning eng muhim hujjatlaridan biri bo‘lib qolmoqda. U muloqotning beshta asosiy tamoyilini va birinchi Oliy mansabdor shaxslar yig‘ilishi davomida kelishilgan hamkorlikning eng istiqbolli o‘nta yo‘nalishini qamrab oladi. Harakatlar rejasining qabul qilinganligining o‘zi Tokioning Markaziy Osiyo davlatlari bilan har tomonlama munosabatlarni rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganligini ko‘rsatadi[8. p.128].

Ko‘p o‘tmay, bosh vazir Koidzumi Junichiro Yaponiya Tashqi ishlar vazirligiga Markaziy Osiyoga rasmiy safar uyushtirish bo‘yicha topshiriq berdi. Markaziy Osiyo Koidzumi uchun tabiiy tanlov bo‘ldi, chunki Yaponiya jamoatchiligi nazarida ushbu Bosh vazir tashrifi “yangi” bo‘lgandi. Chunki hech bir Yaponiya Bosh vaziri bu mintaqaga tashrif buyurmagan edi. Tashrif qisqa bo‘lib, u faqat Qozog‘iston poytaxti Ostona va O‘zbekistonda Toshkent va Samarqandda bo‘ldi. Unda J.Koidzumi tomonidan Yaponiyaning energiya resurslariga, jumladan uranga bo‘lgan qiziqishi yana bir bor ta’kidlandi[4.p.27-28].

Tashqi ishlar vazirlarining ikkinchi uchrashuvi muloqotni institutsionallashtirishga sezilarli turtki berdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ishtirokchilar, shuningdek, mintaqaviy loyihalarni o‘rganish va ularda davlat va xususiy institutlar ishtirokini ta’minlash uchun Iqtisodiyot bo‘yicha Ishchi guruh tashkil etishni taklif qilishdi. Guruhning tarkibiy bo‘linma sifatidagi cheklangan maqomi tufayli yuqori darajadagi iqtisodiy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni himoya qila olmadi. Mazkur Iqtisodiyot bo‘yicha Ishchi guruh 2014-yilda tashkil etilgan va 2019-yilgacha to‘rtta yig‘ilish o‘tkazilgan. Harakat rejasida Tokio intellektual dialogining yillik yig‘ilishlarini o‘tkazish taklifi ham

qo'llab-quvvatlangan. 2007-yilda ikkinchi Tokio intellektual muloqoti yig'ilishi ham o'tkazildi va unda energiya bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Tashqi ishlar vazirlarining uchinchi yig'ilishi 2010-yilda O'zbekistonda bo'lib o'tgan. Unda Tashqi ishlar vazirlari uchrashuvlarini muntazam ravishda va Oliy martabali shaxslar yig'ilishini yiliga kamida bir marta o'tkazish taklif qilindi. 2012-yilda Yaponiyada bo'lib o'tgan to'rtinchi yig'ilishning o'ziga xosligi shundaki, unda Turkmaniston delegatsiyasi to'laqonli ishtirok etdi. Ushbu uchrashuvning asosiy natijasi qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlik bo'yicha ko'p tomonlama maslahatlashuvlarning boshlanishi bo'ldi. Shu bilan birga, Yaponiya tomoni muloqot doirasida muhokama qilinadigan loyihalar uchun yangi mezon – “Yaponiyaning o'ziga xosligi”ni namoyon qildi. Bayonotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Yaponiya tomoni ushbu atama ostida “yapon texnologiyalari va tajribasini uzatish yoki sotib olishga asoslangan va yo'naltirilgan” loyihalarni tushunadi. 2014-yilda Qirg'izistonda bo'lib o'tgan beshinchi Tashqi ishlar vazirlarining yig'ilishi ilk marta barcha a'zo davlatlar vazirlari uchrashganligi bilan ahamiyatlidir. Unda ishtirokchilar tomonidan birinchi bo'lib zararkunandalarga qarshi kurash, pillachilik, chorvachilik, meva-sabzavotlarni qayta ishlash kabi qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish bo'yicha Markaziy Osiyo va Rossiyada oziq-ovqat ta'minotining mintaqaviy zanjirlarini yaratish maqsadida “Yo'l xaritasi” qabul qilindi. Yaponiya Bosh vaziri Abening 2015-yil oktabr oyida Markaziy Osiyo davlatlariga tashrifi ushbu bosqichni yanada rivojlantirdi. Bundan tashqari, 2015-yilda yettinchi Tokio intellektual dialogi ham bo'lib o'tdi. Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) prezidenti muloqot tadbirida ilk marta ishtirok etdi. Akihiko Tanaka o'z nutqida JICA uzoq vaqtdan beri mintaqadagi faoliyatida muloqot uchrashuvlarini asos qilib olganini ta'kidladi [1. p.11]. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, mintaqadagi JICA faoliyatini amalga oshirishida Muloqot doirasida ko'rilgan masalalar va hujjatlar muhim ahamiyatga ega. 2017-yil 1-may kuni Turkmanistonda bo'lib o'tgan oltinchi Tashqi ishlar vazirlari uchrashuvida vazirlar transport va logistika bo'yicha yangi mintaqaviy hamkorlikka oid yo'l xaritasini qabul qildilar. Bundan tashqari, Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Yaponiya hukumatining mintaqaga 24 milliard iyena qo'shimcha yordam taqdim etuvchi “Transport va logistika sohasida hamkorlik” tashabbusi bilan chiqdi. Tadqiqotlardan kelib chiqib shuni aytish mumkin, mazkur mablag' muloqot doirasidagi mintaqaga beriladigan moliyaviy yordamning birinchi shakli sanaladi. Shuningdek, turizm sohasidagi hamkorlik ham so'nggi muloqotlar chog'ida hamkorlikning yana bir istiqbolli yo'nalishi bo'ldi.

2019-yil 18-mayda bo'lib o'tgan “Markaziy Osiyo+Yaponiya” muloqoti doirasidagi Tashqi ishlar vazirlarining yettinchi yig'ilishida Yaponiya Tashqi ishlar vaziri T.Kono Yaponiyaning Markaziy Osiyo diplomatiyasining asosiy siyosati va uning to'rtta ustuni haqida alohida ta'kidladi. Xususan, Yaponiya Markaziy Osiyo davlatlarining “ochiqlik”, “muvozanatda” va “barqaror rivojlanishi”ni qo'llab-quvvatlash va mintaqaviy hamkorlik uchun “katalizator” rolini o'ynashni



davom ettiradi. Mazkur uchrashuvning muhim ahamiyatli jihati shundaki, kun tartibidagi birinchi masala sifatida turizm sohasidagi hamkorlikka e'tibor qaratildi. Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Markaziy Osiyoda turizmni rivojlantirish bo'yicha mintaqada aviareyslar parvozini ko'paytirish, Yaponiya sayyohlik agentliklari assotsiatsiyasi (JATA) bilan hamkorlik qilish va Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy viza joriy etish kabi tashabbuslarini taklif qildi.

Keyingi o'zaro hamkorlikning muhim sohalari – savdo, investitsiya va iqtisodiy rivojlanish masalalari ko'rib chiqilib, bunda vazir Kono Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun yapon kompaniyalarini o'z bozorlariga kirishlarini rag'batlantirish maqsadida barqaror va oldindan ko'riladigan biznes muhitini rivojlantirish muhimligini, shuningdek, ochiqlik, shaffoflik, iqtisodiy samaradorlik va qabul qiluvchi mamlakatlarning moliyaviy barqarorligi kabi xalqaro standartlarga javob beradigan infratuzilmani rivojlantirish muhimligini ta'kidladi. 2020-yil 11-avgustda onlayn ravishda tashkil etilgan vazirlarning maxsus uchrashuvi ham munosabatlar rivojida, xususan, pandemiya davrida olib borilishi ko'zda tutilgan chora-tadbirlar rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

2022-yil 15-aprelda Tashqi ishlar vazirlarining sakkizinchi yig'ilishi ham onlayn shaklda bo'lib o'tdi. Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Hayashi Yoshimasa boshchiligida bo'lib o'tgan muloqotda sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, chegara nazorati, qishloq xo'jaligi, inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari va xalqaro tartibotdagi voqealar, xususan, Rossiya-Ukraina mojarosi, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish masalalari muhokama qilindi[9]. Navbatdagi yig'ilish 2022-yil 24-dekabrda bo'lib o'tgan bo'lib, Tashqi ishlar vazirlarining pandemiyadan keyingi yuzma-yuz uchrashuvi deb belgilash mumkin. Mazkur yig'ilish Tokio shahrida (Muloqot boshlanganidan beri uchinchi marta o'tkazilishi) Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Hayashi Yoshimasa rahbarligida bo'lib o'tgan bo'lib, unda "Kuchli o'zgarib borayotgan xalqaro jarayonlar sharoitida Yaponiya va Markaziy Osiyo o'rtasidagi hamkorlik"ka muhim e'tibor qaratildi. Vazirlar erkin va ochiq Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanishga erishish uchun iqtisodiyot, jamiyat va kadrlar almashinuvida "insonlarga sarmoya" va "o'sish sifati"ga e'tibor qaratgan holda hamkorlikni yangi modellar asosida yo'lga qo'yish va rivojlantirishga qaror qilishdi. Markaziy Osiyo davlatlari vazirlari Yaponiya tomonining o'quv kurslarini o'tkazish, jumladan, Inson resurslarini rivojlantirish stipendiyasi (JDS) loyihasi tomonidan ta'lim grantlari va homiylik mutaxassisi bo'yicha pozitsiyasini ma'qulladilar[10]. Hozirgi kunga qadar "Markaziy Osiyo+Yaponiya" formati doirasida bo'lib o'tgan oxirgi uchrashuv 2023-yil 15-mart kuni Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi va Global forumi hamkorligida tashkil qilingan "Markaziy Osiyo va Kavkaz bilan aloqadorlik" mavzusidagi o'n ikkinchi Tokio muloqoti hisoblanadi. Unda Markaziy Osiyoni dengizga bog'lovchi hudud sifatida Kavkazorti mintaqasining ahamiyati keng yoritildi[11].

2024-yilda Qozog‘istonda o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan Tashqi ishlar vazirlarining 10-yig‘ilishi “Markaziy Osiyo+Yaponiya” Muloqoti vujudga kelganligining 20 yilligiga to‘g‘ri kelayotganligi munosabati bilan keng miqyosda tashkil etilishi kutilmoqda.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Yaponiya geosiyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan Markaziy Osiyoning “ochiq, erkin va barqaror rivojlanishi”ni qo‘llab-quvvatlamoda va mintaqa tinchligi va barqarorligiga hissa qo‘shish maqsadida barqaror rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash diplomatiyasini ilgari surib kelmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlarda Yaponiya kreditlari va grantlari ustunlik qilayotgan bo‘lsa-da, ushbu model o‘zaro hamkorlik, savdo va sarmoya hajmining o‘shishiga qarab o‘zgarib bormoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari va Yaponiya o‘rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik ham muhim va istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Tokioning ijobiy qiyofasini yaratish va tashqi siyosatni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish usullaridan biri sifatida xalq diplomatiyasini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni Yaponiyaning “yumshoq kuch” strategiyasini amalga oshirishning ancha muvaffaqiyatli namunasi deb atash mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dissyukov A. "Central Asia Plus Japan" Dialogue: From Idea to Implementation // 国際日本研究. – 2019. – T. 11.
2. Miyazawa K. Opening remarks by Prime Minister Kiichi Minazawa at the Tokyo Conference on Assistance to the New Independent states. 1992 October 29. // Int.: [https://www.mofa.go.jp/policy/other/bluebook/1992/1992-appendex-2.htm#\(10\)%20Opening](https://www.mofa.go.jp/policy/other/bluebook/1992/1992-appendex-2.htm#(10)%20Opening)
3. About APT // <https://aseanplusthree.asean.org/about-apt/history/>
4. Kawato A. What is Japan up to in Central Asia // Japan’s Silk Road Diplomacy: Paving a Road Ahead, Washington, DC: Johns Hopkins University. – 2008.
5. 日本の新たな対中央アジア政策に関するスピーチ. 「新たな次元へ：中央アジア+日本」世界経済外交大学. ウズベキスタン、タシケン, 2004年8月26日 // [https://www.mofa.go.jp/mofaj/press/enzetsu/16/ekw\\_0826.html](https://www.mofa.go.jp/mofaj/press/enzetsu/16/ekw_0826.html)
6. Kawaguchi Y. Speech by Special Assistant to the Prime Minister Yoriko Kawaguchi (at the 12th Ministerial Council of the Organization for Security and Cooperation in Europe (OSCE) in Sofia, Bulgaria), December 7, 2004 // <https://www.mofa.go.jp/region/europe/osce/speech0412.html>
7. "Central Asia plus Japan" dialogue held in Sofia, Bulgaria (On the occasion of the 12th Meeting of the OSCE Ministerial Council). December 7, 2004 // <https://www.mofa.go.jp/announce/announce/2004/12/1207-2.html>



8. Marat N., Timur S. Japanese diplomacy makes new Headway in Central Asia: its problems, expectations, and prospects //Central Asia and the Caucasus. – 2007. – №. 6 (48).

9. 「中央アジア＋日本」対話・第 8 回外相会合（オンライン）の開催.令和 4 年 4 月 15 日//[https://www.mofa.go.jp/mofaj/press/release/press4\\_009344.html](https://www.mofa.go.jp/mofaj/press/release/press4_009344.html)

10. Joint Statement of the Ninth Foreign Ministers’ Meeting of the “Central Asia plus Japan” Dialogue. December 24, 2022. //[https://www.mofa.go.jp/press/release/press4e\\_003197.html](https://www.mofa.go.jp/press/release/press4e_003197.html)

11. 「中央アジア＋日本」対話・第 12 回東京対話（「中央アジア・コーカサスとの連結性」）の開催（結果）令和 5 年 5 月 16 日  
././[https://www.mofa.go.jp/mofaj/erp/ca\\_c/page4\\_005813.html](https://www.mofa.go.jp/mofaj/erp/ca_c/page4_005813.html)